<i>Некова Фатима Борисовна</i>	
MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASSTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	876
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH .....	882
<i>Kayumov Z.O.</i>	
O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI.....	887
<i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahriddinov Akbar o'g'li</i>	
МЕХНАТ BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	892
<i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	897
<i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i>	
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	901
<i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i>	



ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI .....	906
<b>Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi</b>	
DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	911
<b>Uktamov Sarvar Atxam o'g'li</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ .....	915
<b>Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачиловна</b>	
SANOATNI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI .....	921
<b>O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li</b>	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	926
<b>Sherov Sanjar Radjabovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI STRATEGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	932
<b>Umurov Jasurbek Jamil o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	936
<b>Raxmonov Abduxalil Rasulovich</b>	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI.....	940
<b>Maxkamova Kamola</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA).....	944
<b>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</b>	
UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	950
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
TIKUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK KORXONALARNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	956
<b>Abduhamidov Abdurahmon Abdulatif o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA 2026–2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	963
<b>Ismailov Timur Atabayevich</b>	



# O‘ZBEKISTONDA 2026–2030-YILLARGA MO‘LJALLANGAN SOLIQ MA‘MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ismailov Timur Atabayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-0130-8766

E-mail: [timur.ismailov@soliq.uz](mailto:timur.ismailov@soliq.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida soliq ma‘murchiligi tizimini transformatsiya qilishning strategik yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Xususan, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, soliq majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash, ilg‘or texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq ma‘murchiligi, strategik rivojlanish, raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyot, soliq nazorati, xavflarni tahlil qilish, soliq islohotlari.

**Abstract.** This article examines the strategic directions for the transformation of the tax administration system in the Republic of Uzbekistan. In particular, it analyzes issues related to improving the quality of taxpayer services, ensuring compliance with tax obligations, introducing advanced technologies and innovations, and developing human capital. The author also proposes scientifically grounded recommendations and practical solutions.

**Key words:** tax administration, strategic development, digitalization, shadow economy, tax control, risk analysis, tax reforms.

**Аннотация.** В данной статье исследуются стратегические направления трансформации системы налогового администрирования в Республике Узбекистан. В частности, проанализированы вопросы повышения качества обслуживания налогоплательщиков, обеспечения исполнения налоговых обязательств, внедрения передовых технологий и инноваций, а также развития кадрового потенциала. Кроме того, автором предложены научно обоснованные рекомендации и практические решения.

**Ключевые слова:** налоговое администрирование, стратегическое развитие, цифровизация, теневая экономика, налоговый контроль, анализ рисков, налоговые реформы.

## KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta‘minlash hamda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash soliq tizimining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining Yangi taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar doirasida soliq yukini maqbullashtirish va soliq ma‘murchiligini soddalashtirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

Hozirgi kunda soliq organlari faoliyatini “soliqchi — ko‘makchi” tamoyili asosida tashkil etish, soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda soliq tizimini kompleks raqamlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq nazoratida inson omilini optimallashtirish va axborot almashinuvi tizimlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, bu holatlar sohani strategik jihatdan rivojlantirishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston soliq tizimida mavjud jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ilg‘or xorijiy tajriba asosida soliq ma‘murchiligi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

G'arb iqtisodchilari — S. Fisher, R. Dornbusch va R. Schmalensee [1] fikriga ko'ra, soliq siyosati alohida mustaqil tushuncha sifatida emas, balki fiskal siyosat tarkibida ko'rib chiqiladi. Ularning yondashuvida fiskal siyosat davlatning daromadlari va xarajatlarini boshqarish bo'yicha qarorlar majmui sifatida talqin etiladi.

A. V. Aronov va V. A. Kashin [2] soliq siyosatining maksimal modelini uning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida baholaydilar. Ularning ta'kidlashicha, soliqlar sonini ko'paytirish, soliq stavkalarini oshirish hamda imtiyozlarni qisqartirish ayrim sharoitlarda soliq siyosatining muhim strategik vositalari sifatida qaralishi mumkin.

I. A. Mayburov [3] soliq islohotini soliq tizimini tubdan yangilash va uni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish jarayoni sifatida izohlaydi.

N. M. Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning mustaqil ahamiyatga ega ekanligini hamda soliqlar nazariyasining ilmiy asoslariga tayanishi zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u amalga oshirilayotgan soliq siyosati natijalari davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va soliq tizimini samarali tashkil etish yo'nalishlarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qilishini qayd etadi.

M. V. Karp [5] soliq siyosatini davlatning o'rta va uzoq muddatli moliyaviy siyosatining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, u soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi hamda soliq tizimini boshqarish elementlarini o'z ichiga olishini asoslaydi.

O. Sitnikova [6] konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhini shakllantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratib, bunda aktivlarni tan olish yoki qayta baholash, guruhga kirishdan oldin zararlarni hisobga olish tartibini ishlab chiqish hamda bunday subyektlarning xalqaro miqyosda e'tirof etilishini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.

Yu. Darkina [7] yirik soliq to'lovchilarning o'ziga xos jihatlarni tahlil qilib, ular uchun katta hajmdagi moliyaviy oqimlar, keng ko'lamlı hujjatlar aylanishi, turli tarkibiy bo'linmalar integratsiyasi hamda ichki va tashqi bozorlardagi hamkorlik aloqalarining rivojlanganligi xos ekanligini qayd etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasida amalda qo'llanilayotgan soliq ma'murchiligi tizimi va uning asosiy elementlari o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli asosida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning ilg'or tajribasi, jumladan OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalari tahlil qilindi. Statistik va dinamik tahlil usullari yordamida soliq tushumlari, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda soliq tizimidagi mavjud tendensiyalar baholandi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va strategik hujjatlar o'rganildi. Empirik tahlil elementlari sifatida mavjud amaliyot, soliq organlari faoliyati hamda joriy etilgan raqamli texnologiyalar samaradorligi baholandi.

Tadqiqot natijalarini shakllantirishda umumshtirish, mantiqiy tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilib, soliq ma'murchiligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda soliq organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–10–07 dagi PQ-4389-son qarori<sup>1</sup> bilan tasdiqlangan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi doirasida belgilangan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, so'nggi 6 yil davomida yangi strategik hujjat ishlab chiqilmaganligi sababli soliq ma'murchiligining o'rta va uzoq muddatli istiqbolini belgilovchi yagona konseptual hujjatning yetishmasligi kuzatilmoqda. Mazkur holat soliq to'lovchilarning uzoq muddatli biznes-rejalarini shakllantirishda ayrim noaniqliklarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, soliq tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar — iqtisodiy, texnologik va institutsional jarayonlar — tobora murakkablashib bormoqda. Ushbu sharoitda soliq organlari nafaqat fiskal funksiyalarni samarali amalga oshirishi, balki shaffoflik, samaradorlik, inklyuzivlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etishi zarur.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarning izchil amalga oshirilishi, jumladan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qabul qilinishi soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirishni, xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqishni hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni mustahkamlashni taqozo etmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.07.2019 yildagi PQ-4389-son <https://lex.uz/docs/-4415356>



Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026–02–16 dagi PF–21-son Farmoni<sup>2</sup>ga muvofiq “maqsad – harakat – natija” tamoyiliga asoslangan mutlaqo yangi strategik rejalashtirish tizimi joriy etildi. Mazkur yondashuv O'zbekiston – 2030 strategiyasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zaruratini belgilab berdi.

Shuningdek, 2023–2025-yillarda erishilgan natijalar va o'tkazilgan baholashlar asosida 2026–2030-yillarga mo'ljallangan yangilangan O'zbekiston – 2030 strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiyada fiskal barqarorlikni ta'minlash hamda davlat majburiyatlarini samarali boshqarish maqsadida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2030-yilgacha 17,3 foizga yetkazish ko'rsatkichi belgilangan.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, 2026–2030-yillarga mo'ljallangan soliq ma'murchiligi strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga izchil joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu strategiya soliq to'lovchilar bilan o'zaro ishonchni mustahkamlash, adolatli va raqobatbardosh tadbirkorlik muhitini yaratish orqali nafaqat davlat daromadlarini oshirishga, balki barqarorlik, tenglik va yagona yondashuv tamoyillariga asoslangan samarali soliq tizimini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Asosiy e'tibor soliq to'lovchilarga yo'naltirilganlik tamoyiliga qaratilishi lozim. Bunda shaffoflikni oshirish, soliq to'lovchilarga yo'naltirilgan yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish, ishonchli soliq to'lovchilarning ehtiyoj va manfaatlariga mos xizmat ko'rsatish hamda ularning qonunchilikka rioya etish darajasini oshirish maqsadida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish zarur.

Shuningdek, strategiyada inklyuzivlik va adolatlilik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Shaffof, adolatli va inklyuziv soliq tizimi jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qilib, barcha manfaatdor tomonlar, jumladan kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga nisbatan teng va adolatli yondashuvni ta'minlaydi.

Kelgusi besh yil davomida soliq tizimi orqali ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlash, qonunchilikka ixtiyoriy rioya qilishni rag'batlantirish hamda tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar uchun mavjud to'siqlarni izchil kamaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va xususiy sektor bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish orqali ishonchni mustahkamlovchi hamda qonunchilikka rioya qilish va adolatlilik madaniyatini yuksaltiruvchi soliq ma'murchiligi tizimini shakllantirish ijobiy natijalar beradi.

Mazkur strategiya doirasida quyidagi to'rtta ustuvor yo'nalishni belgilash maqsadga muvofiqdir:

1. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
2. Soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;
3. Ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish;
4. Kadrlar salohiyatini oshirish.

Jumladan, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish yo'nalishida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga bepul xizmat ko'rsatish, murojaatlarga o'z vaqtida javob berish hamda “bironta savol javobsiz qolmasligi” tamoyili asosida faoliyatni tashkil etish; soliq ma'murchiligida sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish, xususan “Davron” sun'iy intellekt yordamchisini yanada takomillashtirish.

2. Soliq qo'mitasi tizimida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan markazlashgan tuzilmani tashkil etish va uni yuqori malakali mutaxassislar (maslahatchilar) bilan shakllantirish.

3. Soliq to'lovchilar va jamoatchilikning soliq tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish hamda xalqaro standartlar asosida xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish.

4. Soliq qo'mitasi tomonidan muntazam ravishda, shuningdek mustaqil tashkilotlar ishtirokida yiliga kamida bir marta keng jamoatchilik o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish orqali soliq organlariga bo'lgan ishonchga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

5. Soliq ma'murchiligida mavjud tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish masalalarini Soliq qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi bilan hamkorlikda har chorakda kamida bir marta muhokama qilish hamda natijalarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borish.

6. Soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar ko'lamini kengaytirish, jumladan soliq to'lovchilarga o'z faoliyat holatini mustaqil o'zgartirish imkoniyatini yaratish, shuningdek ayrim soliqlar (aksiz solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq) bo'yicha hisobotlarni avtomatlashtirilgan tarzda shakllantirish tizimini joriy etish.

7. Soliq qo'mitasi tomonidan statistik va tahliliy ma'lumotlar, mavjud xavf-xatarlar hamda soliq ma'murchiligidagi dolzarb masalalar yuzasidan batafsil axborotlarni har chorakda rasmiy veb-saytda e'lon qilib borish orqali ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>



8. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farq summalarini avtomatlashtirilgan tartibda qaytarish mexanizmini joriy etish.

9. Soliq to'lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ortiqcha to'langan soliqlarni o'z vaqtida qaytarishni ta'minlash maqsadida yagona g'azna hisobvarag'i tizimini joriy etish.

Soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash yo'nalishida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliq xatarlarini boshqarish tizimini (Compliance Risk Management — CRM) sohalar, hududlar va soliq turlari kesimida rivojlantirish, yuqori xavf darajalarini hamda davlat budjetiga potensial tushishi lozim bo'lgan soliq summalarini aniqlash va ushbu tizimni izchil takomillashtirib borish.

2. Davlat budjetiga potensial tushishi lozim bo'lgan soliq summalarini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish hamda shu asosda hisobga olinmay qolgan soliq tushumlarini aniqlash va undirish mexanizmlarini joriy etish.

3. Barcha soliq nazorati tadbirlarini, shu jumladan jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlarni CRM tizimi orqali amalga oshirish amaliyotini kengaytirish.

4. Soliq nazorati tadbirlarining natijadorligini oshirish va xavflarni kamaytirish maqsadida xavflarni differensiyalash tizimini (Risk Differentiation Framework) joriy etish, shuningdek yillik Soliq auditi milliy rejasini ishlab chiqish va uning ijrosini ta'minlash.

5. Kameral soliq tekshiruvlari doirasidagi barcha jarayonlarni soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda amalga oshirish tizimini takomillashtirish.

6. Yuqori daromadga ega jismoniy shaxslarning daromadlari bo'yicha yagona elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda ularning shaxsiy hisobini tizimli yuritish.

7. Jismoniy shaxslarning daromadlari va xarajatlarini bosqichma-bosqich majburiy deklaratsiya qilish tartibini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

8. Qurilish materiallari bozor narxlaridan kelib chiqib soliq bazasini aniqlash mexanizmini joriy etish.

9. Soliq qarzlarini undirish samaradorligini oshirish maqsadida qarzdorning shaxsiy g'azna va maxsus hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish (qishloq xo'jaligi korxonalarini bundan mustasno), shuningdek mol-mulkka qaratish va taqiq qo'yish bo'yicha vakolatlarni takomillashtirish.

10. Qurilish, transport, qishloq xo'jaligi, chakana savdo, ijara xizmatlari hamda yuqori daromadli shaxslar segmentlari bo'yicha soliq ma'murchiligini yaxshilashga qaratilgan kompleks dasturlarni (Compliance Improvement Plans) ishlab chiqish va joriy etish.

11. Soliq organlarida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslarni aniqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish.

12. Avtomatlashtirilgan xavflarni tahlil qilish moduli samaradorligini baholash asosida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini prognoz qilish va soliq ma'murchiligidagi xavflarni aniqlash tizimini rivojlantirish.

13. Soliq auditi o'tkaziladigan subyektlarni tanlashda qo'llaniladigan algoritmlar va jarayonlarni takomillashtirish.

14. Soliq to'lovchilar reestri ma'lumotlarining yaxlitligi va ishonchligini ta'minlash.

Ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish yo'nalishida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliq organlarining yagona integratsiyalashgan axborot-resurs bazasida katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish va takomillashtirish. Bunda ma'lumotlar bazasini bosqichma-bosqich tranzaksiya va tahliliy qismlarga ajratish nazarda tutiladi. Jumladan, soliq organlari ma'lumotlar bazasini faoliyat yo'nalishlari kesimida onlayn tranzaksiyalarni qayta ishlash (OLTP) hamda onlayn analitik ishlov berish (OLAP) tizimlariga ajratish.

2. Soliq qo'mitasi tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ma'lumotlarni vazirlik va idoralardan to'g'ridan-to'g'ri elektron integratsiya orqali olish tizimini joriy etish.

3. Soliq to'lovchilarning tijorat banklaridagi hisobvaraqlari aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlari axborot tizimlariga integratsiya qilish.

4. Soliq qo'mitasi tarkibiy tuzilmalari funksiyalari va xizmatlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish.

5. Soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlarda sun'iy intellekt elementlarini keng qo'llash orqali ularning vaqt sarfini kamaytirish hamda soliq majburiyatlarini bajarishda sodda va qulay sharoitlar yaratish.

6. Soliq ma'murchiligida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish va ularning samaradorligini oshirish.

7. Yuqori xavf darajasiga ega soliq to'lovchilar bo'yicha soliq organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayonlarini to'liq raqamlashtirish.

Kadrlar salohiyatini oshirish yo'nalishida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Soliq organlarida meritokratiya tamoyiliga asoslangan inson resurslarini boshqarish tizimini joriy etish. Bunda "Inson resurslari salohiyatini rivojlantirish" (HR Capacity Development) dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.



2. Soliq qo'mitasi huzurida Soliq akademiyasi, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil etish.

3. Soliq tizimi xodimlari uchun uzluksiz va masofaviy ta'lim tizimini yaratish hamda sertifikatlash mexanizmlarini joriy etish orqali yuqori lavozimlar uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish.

4. Soliq organlari xodimlarining bilim va malakasini muntazam oshirish maqsadida alohida "Xodimlarni rivojlantirish" tuzilmasini tashkil etish.

5. Ilg'or xorijiy tajriba asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish, malakali professor-o'qituvchilarni jalb etish hamda simulyatsion o'qitish platformalari orqali xodimlar malakasini muntazam oshirib borish.

6. Soliq organlarida biznes jarayonlarini tizimlashtirish, operatsion xavflarni aniqlash, baholash va kamaytirish mexanizmlarini joriy etish. Bunda xalqaro standartlar (ISO 22301, ISO 31000) asosida xavflarni boshqarish tizimini joriy etish.

7. Xalqaro sertifikatlarga ega mutaxassislarni rag'batlantirish maqsadida ularning sertifikat olish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash hamda qo'shimcha moddiy rag'batlantirish choralari joriy etish.

8. Soliq organlari xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning sog'lig'ini muntazam tiklash, profilaktik tibbiy ko'riklardan o'tkazish va sog'lomlashtirish dasturlarini amalga oshirish.

9. Soliq tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish maqsadida amaldagi tartib-qoidalarni takomillashtirish hamda ichki nazorat tizimini kuchaytirish.

10. Soliq organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish, ish o'rinlarida barqarorlikni ta'minlash maqsadida uy-joy ipoteka kreditlari bo'yicha qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish.

11. Oliy ta'lim muassasalarining yuqori bosqich talabalari orasidan iqtidorli yoshlarni tanlab olish, ularni qo'llab-quvvatlash va amaliyot orqali soliq organlari faoliyatiga jalb etish tizimini yo'lga qo'yish.

Shuni ta'kidlash lozimki, kelgusida soliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayonida yangi vazifalar va rivojlanish ehtiyojlari yuzaga kelishi tabiiydir. Biroq bu jarayon turli sohalar o'rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlash, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish barcha manfaatdor tomonlar — davlat organlari, biznes subyektlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro hamkorlarning faol ishtirokini talab etadi. Soliq ma'murchiligi tizimini takomillashtirish jarayoni o'zaro hamkorlikka asoslangan bo'lib, islohotlarning samaradorligi zamonaviy, samarali va inklyuziv soliq tizimini shakllantirishda barcha tomonlar bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yishga bog'liqdir.

Global standartlarga moslashish va ilg'or tajribani joriy etish maqsadida xalqaro tashkilotlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan barqaror va tizimli hamkorlikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, soliq organlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning mahalliy biznes va jamoatchilik ehtiyojlariga mosligini ta'minlash, shuningdek, rivojlanayotgan iqtisodiy muhitni inobatga olgan holda tadbirkorlar va aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv barqaror va muvozanatli soliq tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur strategiya zamonaviy, samarali hamda mamlakatning uzoq muddatli barqaror o'sishi va farovonligini qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan soliq tizimining mustahkam institutsional asoslarini yaratishga yo'naltirilgan. Innovatsiya, inklyuzivlik va adolatlilik tamoyillariga izchil amal qilish orqali soliq tizimini jamiyat va iqtisodiyotning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyati kengayadi.

Texnologik rivojlanish, samarali hamkorlik va strategik rejalashtirish asosida nafaqat iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan budjet daromadlarini barqaror ta'minlash, balki adolatli va barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirishga xizmat qiluvchi soliq tizimini rivojlantirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2026–2030-yillarga mo'ljallangan soliq ma'murchiligi strategiyasi uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladigan zamonaviy, samarali va institutsional jihatdan mustahkam soliq tizimini shakllantirish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi: o'quv qo'llanma. — T.: Iqtisod-moliya, 2005. — 48-b.
2. Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учебное пособие. — М.: Магистр, 2007. — С. 99–100.
3. Камалнев Т. Ш. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: автореф. дисс. ... канд. экон. наук. — М., 2009.
4. Майбуров И. А. Налоги и налогообложение: учебник для вузов. — М.: Юнити-Дана, 2007. — 655 с.
5. Юнак А. А. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков: автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. — М., 2009. — С. 12.



6. Дементьева Н. М. Налоговая политика государства. — Elektron manba: [https://nsuem.ru/science/publications/science\\_notes/issue.php?ELEMENT\\_ID=1689](https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689)
7. Карп М. В. Налоговый менеджмент: учебник для вузов. — М.: Юнити-Дана, 2001. — 39 с.
8. Ситникова О. В. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков: автореф. дисс. ... канд. экон. наук. — М., 2012.
9. Даркина Ю. А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков // Interactive Science. — 2019. — № 3 (37).
10. Tax Administration 2025: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies. — OECD, 2025. — Elektron manba: [https://www.oecd.org/en/publications/tax-administration-2025\\_cc015ce8-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/tax-administration-2025_cc015ce8-en.html)
11. Tax Administration Diagnostic Assessment Tool (TADAT): Performance Assessment Report. — July 2023.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026–02–16 даги “Мамлакат тараққийетининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислохотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–21-сонли Фармони.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019–07–10 даги “Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–4389-сонли қарори.
14. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. — Rasmiy veb-sayt: [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---